

NORDIC LIFE

XALQARO NORDIK
UNIVERSITETI
ILMIY-MA'RIFIY JURNALI

14

SON

NOYABR-DEKABR

2025

“

Ta'lim, ilm-fan va
innovatsiyalar orqali
barqaror kelajak sari.



01 MULOQOTLAR

*Choraklik hisobotlar
va tahlillar*

02 MUZOKARALAR

*Jarayonlar tahlili
va natijalar*

03 MUNOSABATLAR

*Muvaffaqiyat omili
va tajribalar*



NORDIK HAYOTI

NORDIC LIFE



NORDIK HAYOTI

Nordic Life



Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sherzod Mustafakulov tahriri ostida



Nashrga tayyorlaganlar:
M. Isaqova, O. Pirmamatov

“Nordic Life” jurnalining 14-fasli 2025-yil **noyabr, dekabr** oylarida Xalqaro Nordik universitetining **xalqaro hamkorlik, ilmiy-akademik diplomatiya, innovatsion ta’lim va ilm-fan rivojida**gi sohalaridagi tizimli yutuqlariga bag’ishlandi.

Mazkur faslda universitetning **global ta’lim makonidagi o’rni, strategik** rivojlanish yo’nalishlari va ilmiy-innovatsion salohiyatini kompleks tahlil etilgan.

Shuningdek, yuqori darajadagi **uchrashuvlar hamda respublika miqyosidagi** yutuqlar ushbu songa o’zgacha mazmun bag’ishlagan.

Jurnal universitet jamoasi, hamkorlar, talabalar va keng jamoatchilik uchun ilmiy-ma’rifiy manba, shuningdek, Xalqaro Nordik universitetining **brend imidjini mustahkamlovchi** muhim nashr sifatida xizmat qiladi.

“INTILGANGA TOLE YOR!”

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



KIRISH

Xalqaro Nordik universitetining faoliyati mamlakatimizning ochiq tashqi siyosati, akademik diplomatiya va global ta'lim integratsiyasi jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. "Nordic life"ning 14-faslida 2025-yilning so'nggi **noyabr** va **dekabr** oylari qamrab olingan bo'lib, Nordikning xalqaro maydondagi institutsional mavqeini mustahkamlash, ilmiy salohiyatni kengaytirish va talaba-yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish yo'lidagi muhim natijalari bilan boyidi.

Ushbu davrda UNESCO huzuridagi Nordik davlatlari elchilarining Nordik rahbariyati hamrohligida Buxoro tarixiy maskanlariga tashrifi madaniy diplomatiya va muloqotni yanada rivojlantirdi. Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibining Nordikka tashrifi universitetning turkiy makondagi ilmiy-ta'limiy integratsiyadagi rolini yanada mustahkamladi. Mazkur uchrashuvlar doirasida mintaqaviy hamkorlik, akademik mobillik va qo'shma dasturlar istiqbollari muhokama qilindi.

Shuningdek, Nordik universitetining xalqaro ta'lim makoniga kirib borishi Erasmus Mundus dasturi doirasida yangi bosqichga ko'tarildi. Vengriya, Shvetsiya, Finlandiya va Qozog'iston bilan qo'shma ta'lim loyihalariga qo'shilish bo'yicha erishilgan kelishuvlar universitetni global akademik tarmoqlarning faol subyektiga aylantirmoqda.

Universitet rektori tashabbuskorligi bois Qirg'iziston Respublikasining O'zbekistondagi elchisi tomonidan Tashakkurnoma bilan taqdirlanishi Nordikning xalqaro aloqalardagi konstruktiv yondashuvi e'tirofi bo'ldi. Boshqaruv kengashi tashabbusi bilan O'zbekistonning GPS dasturi ro'yxatiga kiritilishi esa yana bir muhim yutuqli qadam bo'ldi.

Talabalarning O'zbekistonning Vengriya, Xorvatiya, Serbiya, Sloveniya va Chernogoriyadagi favqulodda va muxtor elchisi Oybek Shaxavdinov bilan uchrashuvi yoshlar diplomatiyasi va xalqaro muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti maxsus vakili bilan o'tkazilgan muloqot esa yoshlar diplomatiyasi va fuqarolik faolligini rivojlantirishga qaratildi.

"Faxriy professor" ilmiy unvoni berilishi, yangi 4 ta nashr uchun ruxsatnomalar olinishi hamda Ilmiy kengashdagi himoya ishlari faolligi akademik muhitning barqaror rivojlanayotganining amaldagi namunasi bo'ldi. Nordikning respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga mezbonlik qilishi, Malayziyada nufuzli uchrashuvlar jarayonlari ham ushbu faslda batafsil yoritildi.

Ta'lim jarayonida "Nordic training" dasturi, jurnalistika va iqtisodchi-ekspertlar ishtirokidagi master-klasslar, Java kursining amaliy natijalari, "Startup garaj" platformasida talabalar g'oyalarining jamlanishi innovatsion ekotizimni shakllantirdi. Nordik "Oltin fondi"ga talabalar saralandi, kadrlarga AI bo'yicha samarali treninglar o'tkazildi va mazkur yo'nalishda yangi qo'llanma ham nashr etildi.

Shuningdek, respublika miqyosida Nordik psixolog-pedagoglarining 1-darajali diplomga erishishi ta'lim sifatining izchil yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

14-fasl sahifalari orqali Xalqaro Nordik universitetini nafaqat ta'lim muassasasi, balki ilmiy-akademik diplomatiyaning faol subyekti, mintaqaviy va global integratsiyaning samarali platformasi sifatida ham yaqindan tanish mumkin. Ushbu bosqichda erishilgan natijalar Nordikning rivojlanish konsepsiyasi izchil va tizimli ravishda amalga oshirilayotgani ifodasidir.

NORDIK DAVLATLARI DIPLOMATLARI – BUXORODA

02.11.2025



Nordik davlatlarining UNESCO huzuridagi elchilari Xalqaro Nordik Universiteti prorektori Nuriddin Muradullayev hamrohligida Buxoroning tarixiy maskanlari bilan tanishdilar.

BMT (UNESCO) Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasidagi tashrif davomida mehmonlarda yurtimiz merosi, ayniqsa, Buxoroning qadimiy obidalari va madaniyati katta qiziqish uyg'otdi.

O'zbekiston – Finlandiya:

ikki davlat o'rtasida yangi sheriklik falsafasi

So'nggi yillarda Finlandiya ta'lim falsafasi, qadriyatlari va ilm olish madaniyati O'zbekiston ta'limiga yangi ruh olib kirmoqda. Bu – yoshlar tafakkurini uyg'otuvchi va yangi imkoniyatlar eshigini ochuvchi jarayon.

Ayni paytda Finlandiya Prezidentining rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va strategik hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarmoqda.



“

“Xalq so'zi” gazetasida chop etilgan maqolada ta'lim va ilmiy-akademik diplomatiya, “Nordic training” dasturi, pedagoglar malakasini oshirish, innovatsiya va inson kapitaliga asoslangan hamkorlik haqida yoritilgan.



Muallif: Xalqaro Nordik universiteti rektori,
professor Sherzod Mustafakulov.

.....

Vengriya, Shvetsiya, Finlandiya va Qozog'iston

bilan yangi ta'lim loyihasi

03.11.2025



Xalqaro Nordik Universiteti ilmiy hamkorlik doirasini kengaytirishda davom etmoqda.

Vengriya poytaxti Budapeshtda Erasmus Mundus dasturi doirasida “Suv resurslari va barqaror rivojlanish sharoitida suv diplomatiyasini boshqarish bo‘yicha qo‘shma magistrlar tayyorlash” loyihasi bo‘yicha dastlabki muzokaralar o‘tkazildi.



O‘zbekiston



Vengriya



Shvetsiya



Finlandiya



Qozog‘iston

Vengriyaning **ELTE** (Eötvös Loránd University), Finlandiya-ning **Kareliya universiteti**, Shvetsiyaning **Uppsala Universiteti**, O‘zbekiston va Qozog‘istonning suv xo‘jaligiga ixtisoslashgan universitetlari hamda **Xalqaro Nordik universiteti** mas‘ullari ishtirokida uch kun davomida muhokama yig‘ilishlari o‘tkazilib, loyihani amalga oshirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Nordik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori **Odiljon Qo‘ysinov** loyihani O‘zbekistonda joriy etilishi bo‘yicha amaliy takliflar berdi. Xususan, ijtimoiy fanlar sirasidagi 4 ta fanning Nordik professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘qitilishi, o‘quv reja va fan dasturlari tuzilishida muhim takliflar kiritdi.

Muhokamalarda quyidagi masalalar kelishib olindi:

- *qo‘shma magistrlik dasturining o‘quv rejasi va fanlar*
- *ta‘lim shakllari va baholash tizimi*
- *stipendiyalar va moliyaviy masalalar*
- *qo‘shma diplom berish tartibi*
- *loyiha veb-sayti va axborot ta‘minoti.*

Xalqaro ilmiy hamkorlikdagi yangi loyiha yoshlar uchun yangi global imkoniyatlarni yaratadi va tizim ravnaqi uchun kerakli kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.



NORDIK TALABALARI DIPLOMATIK TAJRIBALAR BILAN TANISHDILAR

03.11.2025

Xalqaro Nordik universitetida O'zbekiston Respublikasining Vengriya, Xorvatiya va Serbiya davlatlaridagi favqulodda va muxtor elchisi Oybek Shaxavdinov ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Xalqaro Nordik universiteti rahbariyati hamda elchi janoblari o'rtasida samimiy muloqot o'tkazildi. Unda Yevropa davlatlari, xususan, Vengriya, Xorvatiya va Serbiya bilan ilm-fan, ta'lim yo'nalishlaridagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

Shundan so'ng Nordik talabalari uchun ularning dunyoqarashi va global savodxonligi hamda faolligini oshirishga xizmat qiladigan ilmiy-tahliliy uchrashuv bo'lib o'tdi. Respublikamiz elchisining **“O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi munosabatlari hamda bu jarayonda Vengriya, Sloveniya va Xorvatiyaning o'rni”** mavzusida qiziqarli va amaliy mazmundagi ma'ruzasi tinglandi.

O'zbekiston – Yevropa ittifoqi hamkorligining bugungi bosqichi, Markaziy Yevropa davlatlarining O'zbekiston uchun strategik ahamiyati, ta'lim, diplomatiya va investitsiyaviy imkoniyatlar xususida keng ma'lumotlar berildi. Talabalar uchun Yevropada o'qish va amaliyot dasturlari kabi tahlil va faktlarga boy jihatlarga ahamiyat qaratildi.

Ishtirokchi-yoshlar elchi bilan ochiq muloqotda bo'lib, savol-javob va amaliy maslahatlar olish imkoniga ega bo'ldilar. Uchrashuv orqali yoshlarda global fikr yuritish, diplomatik tafakkur va madaniyatni shakllantirishga e'tibor berildi.

Nordik talabalari diplomatik tajribalar bilan tanishdilar

Diplomatik faoliyat va ilmiy salohiyat e'tirofga loyiq uyg'unlikdir. Uchrashuv davomida rahbariyat tomonidan elchi Oybek Shaxavdinovning Xalqaro Nordik universitetida xalqaro ta'lim hamkorliklarini yo'lga qo'yishdagi faol ishtiroki, ta'lim tadqiqotlarini takomillashtirish, xalqaro universitet sifatida shakllanish va rivojlanish jarayoniga qo'shgan muhim hissalar alohida e'tirof etildi.

O'zbekistonning xalqaro diplomatiya makonidagi nufuzli elchilardan biri bo'lgan **Oybek Shaxavdinovga Xalqaro Nordik universiteti "Faxriy professor"i ilmiy unvoni** topshirildi. Tashkiliy, diplomatik hamkorlikni mustahkamlash, Yevropa oliy ta'lim makoniga integratsiya bo'yicha amalga oshirgan tashabbuslari yuqori qadrlanib, ushbu faxriy unvon berilayotgani ta'kidlandi. Ushbu unvonning taqdim etilishi universitetning xalqaro ekspertlar va diplomatlar bilan hamkorlik asosida ilm almashish, ilmiy izlanishlar doirasini kengaytirish siyosatining yana bir amaliy namunasi bo'ldi.

Elchi janoblari Nordik "Dil izhorlari" kitobiga ezgu tilaklarini yozib qoldirdi.

Ustoz-jurnalist **KARIM BAHRIYEV** bilan ochiq muloqot



Xalqaro Nordik universiteti Jurnalistika mutaxassisligi talabalariga soha fidoyisi Karim Bahriyev mahorat saboqlari berdi.

Uchrashuv davomida talabalarga jurnalist va media huquqi, ommaviy axborot vositalari faoliyati va axborot siyosati, so'z erkinligi, mas'uliyat va etik me'yorlar bo'yicha chuqur tahliliy fikrlar, hayotiy misollar hamda kasbiy tajribalar ulashildi.

Uchrashuvda qonunchilikka tayangan holda teran tafakkur bilan ijod qilish va jurnalistning shaxsiy mas'uliyati bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

"Jurnalist – jamiyat oynasi. Ammo bu oyna toza, vijdonli va xolis bo'lishi kerak!" – deya ustoz talabalarga zarur kasbiy mezonlar berdi.

Talabalar uchun bu uchrashuv nazariya va amaliyot uyg'unlashgan maktab bo'ldi.

Nordik

boshqaruv kadrlari uchun
AI bo'yicha samarali
trening

*Xalqaro Nordik universiteti-
da boshqaruv xodimlari uchun
"Ta'limni sun'iy intellekt yordami-
da o'zgartirish" mavzusida amaliy
trening tashkil etildi.*

Treningni xalqaro darajadagi
ekspert **Odilbek Kattayev** olib
bordi.

Treningda ta'lim boshqaru-
vida AI'dan foydalanishning asosiy
yo'nalishlari ko'rib chiqildi. AI yor-
damida rejalashtirish va kontent
yaratish, baholash va o'quv materi-
allarini takomillashtirish, boshqa-
ruv samaradorligi va kasbiy rivojla-
nishni oshirish, vizual va media
materiallar tayyorlash bo'yicha
sun'iy intellektni integratsiya qilish
afzalliklari ko'rib chiqildi.

Trening davomida ishtirok-
chilar boshqaruv jarayonida AI'dan
samarali foydalanish, raqamli qa-
rorlar qabul qilish va innovatsion
ta'lim muhitini shakllantirish bo'yi-
cha amaliy ko'nikmalarga ega bo'l-
dilar.

05.11.2025

06.11.2025

Ta'limda sun'iy intellekt – endi o'zbek tilida!



Ta'lim sohasi ildam o'zgarayotgan bir davrda sun'iy intellekt o'qitish, baholash va boshqaruv jarayonlarini tubdan yangilamoqda. Nordikda bu imkoniyatlar haqida yangi qo'llanma nashr etildi.

Ushbu qo'llanmada ta'limda SI texnologiyalarining eng so'nggi yo'nalishlari, o'qituvchi va talabalarga taqdim etayotgan yangi imkoniyatlari, misollar, metodlar, tavsiyalar va amaliy yechimlar jamlangan.

Ta'limning ertangi kuniga nazar: SI nima beradi?

O'qituvchilar, ta'lim boshqaruvchilari, raqamli texnologiyalar bilan ishlovchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va doktorantlar qo'llanma orqali SI olamiga keng nazar solishlari mumkin.

Mazkur qo'llanma ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishda ishonchli yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi.

Mualliflar – Odiljon Qo'ysinov, Odilbek Kattayev va innovatsiyalar sohasi mutaxassislari.

Darslik va o'quv qo'llanma- larimizga nashr ruxsatno- malari berildi



+998(55)508-44-00
www.nordicuniversity.org

Nashr ruxsatnomasi olindi



Xalqaro Nordik universitetida tayyorlangan ilmiy-metodik adabiyotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashr uchun rasmiy tasdiqdan o'tdi.

Shuningdek:

- **"Цифровая экономика"** darsligi – Z.Madiyeva, K.Tajibayeva, R.Yaxshiboyev muallifligida tayyorlanib, vazirlik tomonidan Guvohnoma bilan tasdiqlandi.

Qator o'quv qo'llanmalar uchun ham nashr ruxsatnomalari berildi:



"Oila pedagogikasi", muallif – F.Islamova



"Maktabgacha pedagogika", muallif – M.Egamberdiyeva



"Русский язык", muallif – N.Chernova.

O'zbekiston

iqtisodiyoti: ekspert bilan ochiq muloqot

Xalqaro Nordik universitetida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Abdulla Abdukadirov bilan mazmunli uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv davomida boshqaruv va iqtisodiy tahlil sohasida katta tajribaga ega ekspert **"O'zbekiston iqtisodiyoti: xususiyatlari va xavflar"** mavzusida chuqur tahliliy ma'lumotlar taqdim etdi.

Muloqotda so'nggi iqtisodiy islohotlarning natijalari va yangi tendensiyalar, eksport-import jarayonlaridagi o'zgarishlar, iqtisodiy xavf-xatarlar va imkoniyatlar, global mehnat bozori masalalari muhokama etilib, yoshlarda iqtisodiy kompetensiyalar shakllantirildi.

Mazkur uchrashuv Nordikda ta'lim olayotgan talabalar uchun iqtisodiy jarayonlarni chuqur tushunish, real sektor bilan bevosita tanishish hamda ekspert bilan jonli muloqot qilish imkoniyatini yaratdi.





YOSHLAR DIPLOMATIYASI: YXHT MAXSUS VAKILI NORDIKDA!

Xalqaro Nordik universitetiga YXHT raisining Yoshlar, tinchlik va xavfsizlik masalalari bo'yicha maxsus vakili Santeri Leinonen tashrif buyurdi.

Janob Leinonen talaba-yoshlar bilan muloqot qilib, barchani barqaror tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarda faollikka undadi.

Nufuzli mehmon 2025-yil iyul oyida Helsinkida bo'lib o'tgan YXHT raisligidagi **Yoshlar forumi** natijalari bilan o'rtoqlashdi.

Shuningdek, u Finlandiyaning yoshlar hamkorligi bo'yicha ilg'or tajribasi va (YTS) yo'l xaritasi, milliy harakat rejalari loyihasini tayyorlash jarayoni haqida so'zlab berdi.

Uchrashuvda nufuzli mehmonlar Nordikning Finlandiya oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim hamda work and travel kabi dasturlari natijalari bilan tanishtirildilar.

Talabalar tinchlik, muloqot va o'zaro hurmatni mustahkamlashda yoshlarning o'zni borasida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Uchrashuv yoshlar uchun globallashuv, diplomatiya va tinchlik sari ochiq maydon vazifasini o'tadi.



XNU Kengashida navbatdagi himoya ishlari muvaffaqiyatli yoqlandi

Nordik universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashda navbatdagi himoya ishlari ko'ildi.

Kengashda Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi **Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li** iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov ilmiy rahbarligida tayyorlangan "Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash" mavzusidagi nazariy va amaliy ahamiyatli himoya ishi mohiyati bilan keng tanishtirdi. Mavzuning dolzarbligi, tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy, amaliy tavsiyalarga keng to'xtaldi. Barcha savollarga atroflicha javoblar berdi.

Shuningdek, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent **Odiljon Rixsimbayev** ilmiy rahbarligida **Mirzaraximova Aziza** Baxrom qizining "Elektron sog'liqni saqlash" tizimini takomillashtirishda yangi texnologik yondashuvlarning tadqiqoti" mavzusida himoya ishi keng muhokama qilindi.

Har ikki nomzod PhD ilmiy Darajasini olish uchun dissertatsiya ishlarini munosib yoqladilar.



Malayziyada

yuqori darajadagi uchrashuvlar

Tadbirda Malayziyaning Kedah shtati Sultoni hamda valiahd shahzodasining ishtiroki forumning xalqaro nufuzini yanada oshirib, ta'lim sektoridagi strategik tashabbuslarning davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanayotganini namoyon etdi.

Utara universitetining taklifiga asosan LeadersMind-2025 xalqaro forumi va UUM Kengashi-ning 38-yig'ilishi doirasida Xalqaro Nordik Universiteti prorektori Nuriddin Muradullayev hamda bo'lim boshlig'i Navruz Islamov tantanali yig'ilishda ishtirok etdilar.

“

Tashrif oliygohlarimiz o'rtasida ta'lim boshqaruvi, raqamli transformatsiya, liderlik kompetensiyalari va xalqaro akademik hamkorlik yo'nalishlarida tajriba almashish imkoniyatini yaratdi.



Nordik talabalari – xalqaro maydonda!

Xalqaro Nordik universitetining Malayziyaning Utara universitetida tahsil olayotgan iqtidorli talabasi Madinabonu Abdusalomova nufuzli xalqaro yig'ilishda tarjimon-volontyor sifatida ishtirok etdi.

U Rossiya–Malayziya o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy, texnik va madaniy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiya yig'ilishida faoliyat olib bordi.

Nordik talabasi o'z bilim va ko'nikmalarini xalqaro jarayonlarda amalda qo'llamoqda.

Muhammadjon Obidov: surishtiruv jurnalistikasi saboqlari

11.11.2025



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Muhammadjon Obidov Jurnalistika mutaxassisligi talabalari bilan uchrashuv o'tkazdi. Bu nafaqat dars — balki haqiqiy jurnalistika maktabi, kasb kengliklariga sayohat bo'ldi.

“Jurnalist ta’magirlik va poraxo’rlikdan yiroq bo’lishi kerak. Unda kuch ham bo’ladi, imkoniyat ham — ammo jurnalist hech qachon o’ch olish uchun qalam tutmasligi kerak. Bu kasb — adolat yo’lida xolis xizmat.”

Ustoz jurnalist turli yillarda "Axborot" direksiyasi, "O'zbekiston ovozi", "Farg'ona haqiqati", "Ферганская правда" tahririyatlari va O'zAda olib borilgan faoliyati davomida tayyorlagan rezonansli jurnalistik surishtiruvlari, ularning natijalari, oqibatlari va ta'sir kuchi haqida misollar bilan so'zlab berdi. Talabalar bilan maqolalar tahlili o'tkazildi, videomateriallar ko'rildi, har bir surishtiruv ortidagi mashaqqat, xavf, jasorat va mas'uliyat yorqin misollar orqali ochib berildi.

Iqtiboslar:

- *Jurnalist — dalillarga suyanadi, shov-shuvga emas.*
- *Surishtiruv — bu jasorat, biroq har bir so'zning ortida mas'uliyat turadi.*
- *Manfaatlar kurashida xolislikni saqlash — haqiqiy professionallik mezon.*
- *Har bir materialning uslubi individual bo'lishi, qolipga tushmasligi kerak.*
- *Targ'ibot emas, haqiqat jurnalistni kuchli qiladi.*

Muhammadjon Obidov o'z faoliyati davomida 40 ga yaqin davlatda bo'lgan jurnalist, "Farg'ona jurnalistikasi", "Jurnalist surishtiruvi" kabi qator kitoblar muallifi sifatida ham o'z tajribalarini ulashdi. Jurnalist-talabalar uchun muhim kitoblarini Nordik kutubxonasiga tuhfa qildi.

Mazkur uchrashuv talabalarga jurnalistikaning kechagi kuni, buguni va ertangi istiqboli haqida keng tasavvur berdi. Ustoz bir maslahatini alohida urg'u bilan aytdi:

“Shogird tayyorlang. Bilim, tajriba faqat sizda emas – boshqalarda ham davom etsin.”

Natalya MDHning 500+ pedagogi orasida tanlov finalchisi!

12.11.2025

Xorijiy tillar kafedrasining katta o'qituvchisi Chernova Natalya Vasilyevna "MDH Pedagoglar Ligasi" xalqaro tanlovi finalchilari qatoriga kirdi!

7 mamlakatdan ishtirok etgan 500+ ta pedagoglar orasidan 30 nafari finalga chiqdi. Ulardan ikki nafari O'zbekiston nomidan ishtirok etishadi!



Bu nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki universitetimiz va yurtimiz ta'limi uchun ham katta faxr!

17–29 noyabr kunlari Natalya Moskva shahridagi РУДН universitetida malaka oshirib, xalqaro tajriba almashadi, treninglarda qatnashadi va finalist diplomi bilan taqdirlanadi.

SEMINAR: MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT XAVFSIZLIGI

13.11.2025



Xalqaro Nordik universitetida Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamkorligida o'tkazilgan "Media savodxonlik va faktchecking" seminari — zamonaviy axborot oqimida to'g'ri yo'l topish xususida bo'ldi.



Adliya vazirligi huzuridagi Multimedia markazi rahbari **Sevara O'rinboeva** mediasavodli bo'lish — bu nafaqat internetda feyklardan himoyalalanish, balki mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy yondasha oladigan aqlli foydalanuvchi bo'lishdir, deya ta'kidladi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi **Laylo Aslonova** va O'ZJOKU doktoranti **Umida Qodirova** "Fact-checking va sun'iy intellekt: zamonaviy jurnalistikada ishonchli manbalarni aniqlash" mavzusida tahliliy ma'ruzalar taqdim etishdi.

Seminar talabalar bilan interfaol tarzda o'tkazildi. Mutaxassislar tomonidan axborot asri — faktlarga asoslangan tafakkur zamoni ekanligi ta'kidlandi.

NORDIK TALABALARIDAN XALQONA KOMEDIYA: "MAYSARANING ISHI"

13.11.2025-yil

O'zbek dramaturgiyasi durdonalaridan biri - "Maysaraning ishi" asari talabalar tomonidan mahorat bilan sahnalashtirildi. Nordik talabalar teatr klubi a'zolari talqinida jonlangan bu asar o'zbek teatr san'atining klassik durdonasiga hurmat, sahnaga, ijodga, milliy qadriyatlarga mehr ifodasi bo'ldi. Bu talabalar madaniy hayotida yana bir olg'a qadam ham bo'ldi.

Tomoshabinlar spektaklda zamonaviy talqindagi sahna yechimlari, tabiiy va samimiy ijrodan zavq oldilar.



NORDIKDA YANGI INNOVATSIYALAR TO‘LQINI: "STARTAP GARAJ"DA G‘OYALAR JAMLANMOQDA

14.11.2025

“Dizayn fikrlash va servis dizayn” fanidan talabalar oraliq nazorat doirasida O‘zbekiston sharoitiga mos, eng ishtiqbolli startup g‘oyalarini ishlab chiqish vazifasini bajardilar.



Talabalar taqdim etgan loyihalar innovatsion fikrlash, amaliy yechimlar va ijtimoiy foydalilik jihatdan e’tirofqa loyiq bo’ldi. Har bir loyiha universitet rahbariyati tomonidan batafsil ko’rib chiqilib, tahliliy fikr-mulohazalar, takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar berildi.

Ushbu jarayonlar natijasida universitetda yangi tashabbus – **“Startup Garaj”** yo’lga qo’yilishi rejalashtirilmoqda. Bu platforma talabalarning g‘oyalarini real loyihalarga aylantirish, ular uchun mentorlik, texnik qo’llab-quvvatlash va ijodiy maydon yaratishga xizmat qiladi.



XNU

kengashida navbatdagi himoya ishi yoqlandi

Nordik universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashda navbatdagi dissertatsiya ishi himoya qilindi.

Kengashda Diyarova Mahliyo Islamovna "Qurilish korxonalari boshqaruv faoliyatining moliyaviy natijadorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega tadqiqot ishi mohiyati bilan keng tanishtirdi.

Himoya jarayonida mavzuga oid dolzarb taklif va tavsiyalar ilgari surildi, tadqiqot ishi keng muhokama qilindi.

Kengash a'zolari Tomonidan dissertatsiya ishi ijobiy baholandi va munosib yoqlandi.

Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi — Nordikda

15.11.2025



Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev universitetimizga tashrif buyurdi.

Uchrashuv davomida TDT bosh kotibi Nordik universitetining ta'lim modeli, ilmiy loyihalari va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari bilan yaqindan tanishdi. Muzokaralarda turkiy makonda oliy ta'limni integratsiyalash, qo'shma dasturlar, ilmiy-tadqiqot klasterlarini shakllantirish kabi mavzularda so'z bordi.

Tashrif doirasida turkiy davlatlar ta'lim makoni, oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish istiqbollari, yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish masalalarida fikr almashildi.

13 jamoa orasida yetakchi: Nordik investitsion loyihasi 1-o'rinda!

17.11.2025



Guliston shahrida "Hududlararo investitsion loyihalarni joriy etish" forumi — yoshlarning kelajak g'oyalari va iqtisodiy yechimlar jamlangan kuchli platforma bo'ldi.

Unda 13 ta jamoa hududlar kesimidagi investitsion muammolar, imkoniyatlar va istiqbollarga doir loyihalarini taqdim etdi.

Baholash jarayonida g'oyaning yangiligi, iqtisodiy tahlilning puxtaligi, yechimlarning amalga oshirish imkoniyati, hududlararo integratsiya uchun qo'shadigan ulushi e'tiborga olindi.

Nordic University jamoasi aynan shu mezonlar bo'yicha eng yuqori natija ko'rsatib, **1-O'RIN**ni qo'lga kiritdi.

Jamoamiz hududlararo investitsion aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan tahlil, aniq strategiya va innovatsion model bilan hakamlar hay'atining e'tiborini tortdi. Loyihaning amaliy qiymati va iqtisodiy samaradorligi yuqori baholandi va munosib taqdirlandi.

ENG FAOL TALABALAR – NORDIK OLTIN FONDIDA!

18.11.2025



Nordik rivojiga hissa qo'shayotgan, ta'lim va innovatsiya maydonida faol ishtirok etayotgan yetakchilar Top-listdan joy oldilar.

Xalqaro talabalar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tanlovda g'olib bo'lgan eng faol, eng iste'dodli talaba-yoshlar Sertifikat bilan taqdirlandilar va "Rektor stipendiyasi"ga savozor bo'ldilar.

“O‘ZBEKISTON–2030 STRATEGIYASI: AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

19.11.2025



Xalqaro Nordik universitetida ushbu mavzuda mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Mazkur anjumanda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ekologiya, tashqi siyosat, raqamli transformatsiya, turizm va jamiyat rivoji kabi ustuvor sohalardagi islohotlarni ilmiy jamoatchilik ishtirokida tahlil qilish, ularning amaliy natijalarini muhokama etish hamda istiqboldagi vazifalarni belgilashga asosiy e'tibor qaratildi.

Konferensiya ochilishida Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Sherzod Mustafakulov** O'zbekiston–2030 strategiyasini mamlakatning yangi avlodi uchun mo'ljallangan kompleks modernizatsiya dasturi sifatida baholab, uni amalga oshirishda ilmiy hamjamiyatning o'rni tobora ortib borayotganini e'tirof etib o'tdi. Innovasion yondashuvlar, ilmiy tahlillar va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish strategiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillar ekanini ta'kidladi.

Shuningdek, anjumanda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zosi **Navruzbek Yusupov** va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ moliya departamenti boshlig'i (PhD) **Jasurbek Qodirov** o'z ma'ruzalarini taqdim etdilar. Qonunchilik islohotlari, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash va strategik vazifalarni qonuniy asosda qo'llab-quvvatlash, atrof-muhit muhofazasi va hisob siyosatini takomillashtirish masalalaridagi ilmiy mulohazalari bilan o'rtoqlashdilar.

Konferensiyada turli sohalar yetakchi ekspertlari O'zbekiston–2030 strategiyasida belgilangan vazifalar bo'yicha chuqur tahliliy ma'ruzalar taqdim etdilar. Xususan, ekologik barqarorlik va yashil taraqqiyot – atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik bo'yicha strategiyaning ustuvor yo'nalishlari yoritildi. Davlat-xususiy sherikchilining yangi modeli bo'yicha amaliy takliflar taqdim qilindi. Oziq-ovqat xavfsizligi, xalqaro standartlarga mos, barqaror ishlab chiqarish va ta'minot tizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy xulosalar berildi.

Shuningdek, tashqi siyosat samaradorligi mintaqaviy hamkorlik, investitsion diplomatiya va global maydondagi faol tashqi siyosat natijalari keng muhokama qilindi. Yashil iqtisodiyotga o'tish, iqtisodiy o'sishning ekologik xavfsiz modelini shakllantirish bo'yicha dolzarb ilmiy tahlillar taqdim etildi. Ma'ruzachilar davlat boshqaruvini raqamlashtirishda kosmik ma'lumotlarning qo'llanilishi va uning istiqbollari xususida ham ilmiy izlanishlari samaralari bilan bo'lishdilar.

Konferensiyaning sho'ba yig'ilishlari qizg'in davom etdi. Iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy-huquqiy o'zgarishlar, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiya, yoshlar siyosati, ma'naviyat va madaniy meros, ekologik barqaror taraqqiyot, raqamli transformatsiya va ilg'or boshqaruv tizimlari yo'nalishlarida ilmiy ma'ruzalar tinglandi. Islohotlarning jamiyatga ta'siri, mavjud muammolar, ularning sabablari hamda innovatsion yechimlar yuzasidan fikr almashildi. Tadqiqotchilar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan bir qator amaliy takliflar ilgari surildi.

Tadbir yakunida sho'ba yig'ilishlarining asosiy xulosalari umum-lash-tirildi va O'zbekiston–2030 strategiyasini ilmiy asosda qo'llab-quvvatlash bo'yicha kelgusi rejalar, vazifalar belgilab olindi.

Konferensiyaga jami 130 dan ortiq tezis va maqolalar kelib tushdi. 16 ta eng sara maqola Nordik elektron jurnalining maxsus soniga qabul qilindi, 100 ga yaqin maqola va tezis esa ASR platformasi va konferensiya to'plamida chop etildi.

JAVA KURSI ISHTIROKCHILARI SERTIFIKATGA EGA BO'LDILAR!

20.11.2025



Xalqaro Nordik universiteti ham-da EPAM kompaniyasining Senior dasturchisi hamkorligida tashkil etilgan "Java Foundation" o'quv kursi-ning 1-moduli muvaffaqiyatli yakun-landi.

Kurs davomida talabalar dastur-lashning asosiy tamoyillari, amaliy ko'nikmalar va IT sohasida profes-sional o'sish uchun zarur bo'lgan fundamental bilimlarni puxta o'z-lashtirdilar. Yosh dasturchi-talabalar yangi imkoniyatlari bilan qutlanib, Sertifikat topshirildi!

OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM UCHUN KIRISH IMTIHONLARI BO'LIB O'TDI

22.11.2025

Xalqaro Nordik universitetining Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida 2026-yil uchun PhD (doktorantura) yo'nalishiga kirish imtihonlari o'tkazildi.

Imtihonda talabgorlarning ilmiy salohiyati, tadqiqot olib borish qobiliyati va tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilimlarini baholashga e'tibor qaratildi.



ICHKI TURIZM: SAMARQANDGA MAZMUNLI SAYOHAT

23.11.2025



Xalqaro Nordik universitetining bir guruh jamoasi Samarqandning tarixiy va zamonaviylik uyg'unlashgan e'tiborli maskanlariga sayohat qildilar.

Betakror Registon, masjid, madrasa va turizm majmualarining qadimiy ruhidan bahramand bo'lindi.

Bu safar madaniy hordiq manbai bo'lish bilan birga milliy merosimizni chuqurroq anglash uchun ham ajoyib imkon bo'ldi.

DEKAN VA YOSHLAR: OCHIQLIK, ISHONCH VA RIVOJLANISH

20.11.2025

Dekan Elshod Umarovning 1-kurs guruhlar sardorlari bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.


Uchrashuv davomida o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, intizom va odob-axloq masalalarida so'z bordi. Talabalar ehtiyoji va takliflari o'rganilib, atroflicha muhokama qilindi.

Sardorlarning faol pozitsiyasi universitet boshqaruvini yanada ochiq va interaktiv qilmoqda. O'rinli takliflar amaliy qadamlarga aylanyapti.



**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA AMALIY MATEMATIKA:
BILIMDAN AMALIYOTGA**

26.11.2025



Nordik nashriyotida “Axborot kommunikatsiya texnologiyalari” nomli yangi o’quv qo’llanma boshiga tayyorlandi va nashr etildi (mualliflar — D.Sabirova va O.Azizov).

Kitob zamonaviy ta’lim uchun zarur AKT ko’nikmalarini bosqichma-bosqich va amaliy tarzda o’rgatadi. Unda axborot va ma’lumot tushunchalari, kompyuter qurilmalari, operatsion tizimlar hamda sun’iy intellekt bo’yicha eng kerakli mavzular jamlangan.

Shuningdek, yangi nashr etilgan “Amaliy matematika” qo’llanmasi (mualliflar — A.Boltayev, X.Xudoyberdiyev va B.Atamuradova) matematikani yanada oson va amaliy misollar bilan o’rganishga yordam beradigan qulay manbadir.

**BESH TASHABBUS OLIMPIADASI: STOL TENNIS
MUSOBAQASI BO’LIB O’TDI**

29.11.2025



Nordik universitetida navbatdagi sport musobaqasi o’tkazildi.

Talabalar tezkorlik, chaqqonlik va diqqatni jamlash ko’nikmalarini ham namoyon etdilar.

Birlik, do'stlik va yaxshi kayfiyatda kechgan musobaqa davomida sport mahorati yuqori ishtirokchilar o'z o'yin madaniyatlari bilan ajralib turdilar.

NORDIK UNIVERSITETIDA NAVBATDAGI KENGASH YIG'ILISHI O'TKAZILDI.

01.12.2025



Shuningdek, universitetni kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, sifat kafolati tizimini mustahkamlash va xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi keng muhokama qilindi.

Kengashda 2026-yil uchun tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul masalasi – ilmiy kadrlar salohiyatini rivojlantirish, professor-o'qituvchilarga doir qarorlar – vaqtincha lavozim topshiriqlari hamda yangi o'quv-adabiyotlarni nashrga tavsiya etish, "

"Work and travel" dasturini takomillashtirish, talabalar uchun xalqaro tajriba imkoniyatlarini kengaytirishga oid muhim masalalar ham ko'rib chiqildi.

Kengashda ko'rilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Kun tartibidagi masala – Toshkent shahar maktablari o'qituv-chilari o'rtasida fizika-matematika olimpiadasini o'tkazish, pedagoglar salohiyatini oshirish va "maktab–universitet" integratsiyasini kuchaytirish masalasi ko'rildi. Oldinda turgan vazifalar belgilandi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarining amaliyot tartibi bo'yicha dasturlar va Nizomni tasdiqlash, amaliyot jarayonini standartlashtirish va samaradorligini oshirish masalasida mas'ullarning hisobotlari tinglandi.



“ZAMONAVIY MEDIA: HUQUQ, XAVFSIZLIK VA RAQAMLI VOSITALAR” – YOSH JURNALISTLAR UCHUN TRENING

01.12.2025



Nordik universitetida yosh jurnalistlar uchun zamonaviy media muhitida ishlash, huquqiy savodxonlik, axborot xavfsizligi va raqamli vositalardan samarali foydalanish bo'yicha besh kunlik intensiv trening o'tkazildi.

Ochilish qismida ishtirokchilar trening maqsadlari va kutilayotgan natijalar bilan tanishtirildi, o'zaro tanishuv va fikr almashish muhiti yaratildi.

"Qonun ustuvorligi, inson huquqlari va demokratlashtirishga ko'maklashish" loyihasi doirasida YXHTning O'zbekistondagi loyihalar koordinatori Ofisi ko'magida o'tkazilayotgan treningda Nordic University talabalari hamda yosh jurnalistlar ishtirok etishmoqda.

Bugungi mashg'ulotlar davomida Patent vakillari assotsiatsiyasi rahbari, yurist va mediator **Madina Tursunova** ishtirokchilarga O'zbekistonda OAV to'g'risidagi qonunchilik, jurnalist huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, tahririyatning mas'uliyati hamda axborot olish tartibi haqida atroflicha ma'lumot berdi.

Zamonaviy jurnalistikaning asosiy tamoyillari, davlat organlaridan ma'lumot olish jarayonlari, so'rov yuborish qoidalari ham amaliy misollar orqali muhokama qilindi.

NORDIKDA "FOOD FAIR" — LAZZAT VA EZGULIK UYG'UNLASHGAN XAYRIYA YARMARKASI!



Taomlar yarmarkasida talabalar ham, ustozlar ham mehr bilan tayyorlangan taomlar atrofida jam bo'lib, iliq muhitda xayrli ishga hissa qo'shdilar.

Bugungi axborot oqimi keskin tezlashgan davrda jurnalistning xavfsiz va qonuniy ishlashi, feyk ma'lumotlarni aniqlay olishi, ochiq ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishi va

auditoriya ishonchini saqlashi muhim. Shu nuqtayi nazardan trening nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Besh kun davom etadigan treningda ishtirokchilar professional faktcheking, jurnalistik surishtiruv, media va axborot savodxonligi, "hate speech"ning turli jihatlari, SMM va kontent ishlab chiqish, shuningdek AI vositalari bilan ishlash bo'yicha chuqurlashtirilgan mashg'ulotlar o'tadilar.



MASTER CLASS: NORDIKDA TOEFL/GRE BO'YICHA EKSKLYUZIV UCHRASHUV!

04.12.2025



TOPSCORE TEST CENTER direktori, TOEFL iBT/GRE rasmiy imtihon markazi rahbari va ETS Global hamkori Dilmurod Sharifov ishtirokida yuqori saviyada master class o'tkazildi.

Uchrashuv davomida talabalar TOEFL imtihonining amaldagi talablari, baholash mezonlari, writing & speaking bo'yicha eng samarali texnikalar, qisqa muddatda natijani oshirish strategiyalari haqida professional va aniq ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Bu bilimlar ularning global ta'lim sari tashlaydigan har bir qadami uchun yo'l xaritasi vazifasini o'taydi.

Eng qizg'in qism — viktorina bo'ldi! Tadbir yakunidagi bilimlar viktorinasi talabalar faolligi va qiziqishini yanada oshirdi. G'oliblar TOPSCORE Test Center tomonidan maxsus vaucherlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Mazkur uchrashuv talabalarga xalqaro imtihonlarning ichki jarayonlarini chuqur anglash, o'z kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, maqsadlarini aniqlashtirish va eng muhim, global ta'limga bir qadam yaqinlashish imkonini berdi.

USTOZ VA TALABALAR QALBI HAMDA MAHORATI BIRLASHDI!

05.12.2025



BT-23 guruhi

talabalarining Robototexnika fani darslaridagi amaliy natijasi — zaif ko'ruvchilar uchun mo'ljallangan aqlii hassa (yordamchi tayog) loyihasi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Talabalar qurilmaning elektronikasini yig'ish, Arduino kodlarini yozish va 3D modellarini ishlab chiqish kabi barcha bosqichlarni mustaqil bajardilar.

Loyihaning taqdimoti Toshkent shahar ijtimoiy o'zaro yordam "Mehribonlik" nogironlar jamiyati Chilonzor tuman bo'linmasida o'tkazildi — hamjamiyat vakillari qurilmaning imkoniyatlari va foydalanish tartibini o'rganib, talabalarga iliq so'zlar bilan minnatdorchilik izhor etdilar. Bu loyiha texnologiya bilan insonparvarlikning ajoyib uyg'unligi bo'ldi. Talabalar kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga insonlar hayotini osonlashtirishga qaratilgan haqiqiy ijtimoiy vosita yarata oldilar.

NORDIKDA "MEHR ULASHAYLIK" NOMLI KONSERT DASTURI NAMOYISH ETILDI

05.12.2025



3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan ijtimoiy-ma'rifiy tadbirda jamiyatda nogironligi bor insonlarning imkoniyatlarini keng yoritish, mehr-oqibat, hamjihatlik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash maqsad qilindi.

Unda Toshkent shahridagi **77-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internat**ning 20 nafar ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilari, universitet professor o'qituvchilari, **Maxsus pedagogika** (Logopediya) yo'nalishi talabalari ishtirok etdilar.

Tadbir mezbonlari – talabalar o'quvchilarni samimiy kutib oldilar. Bu jarayon yoshlar o'rtasida iliqlik, hurmat va o'zaro qo'llab-quvvatlash muhitini yaratdi.

Tadbirni Xalqaro Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** kirish so'zi bilan ochib berdi. Rektor o'z nutqida jamiyatda inklyuzivlikning ahamiyati, ta'lim maskanlarining ijtimoiy mas'uliyati va barcha o'quvchilarning salohiyatini teng qo'llab-quvvatlash zaruriyati haqida so'z yuritdi.

77-sonli maktab-internat o'quvchilari hamda universitet talabalari birgalikda jonli qo'shiq ijro etdilar.

Konsert dasturida universitetning musiqa yo'nalishida tahsil olayotgan ijodkor-talabalari she'rlar, raqslar, kuy-qo'shiqlar orqali bayram kayfiyatini taqdim etdilar.

Tadbirning ma'rifiy qismida maktab-internatning fidoyi ustози Brayl alifbosining paydo bo'lishi, tuzilishi va undan foydalanish qoidalari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etdi. Ko'zi ojiz o'quvchilar qanday o'qishi, yozishi va bilim olishi mumkinligini amaliy misollar bilan yoritib berdi.

Tadbir nihoyasida faol o'quvchilar, yoshlar tashakkurnomalar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



MALAKAVIY IMTIHON O'TKAZILDI

09.12.2025



Nordik universitetida ixtisoslik fanlari bo'yicha malakaviy imtihonlarning noyabr sessiyasi belgilangan tartibda o'tkazildi.

Mazkur imtihon **"Sanoat iqtisodiyoti"**, **"Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya"** ixtisosliklari bo'yicha OAKning belgilangan Nizomi asosida o'tkazildi.

Izlanuvchilarning tadqiqot yo'nalishidagi bilimlari, tahlil va strategik fikrlash qobiliyati, maxsus fanlardagi kasbiy malakasi sinaldi va baholandi.

14 KUNLIK LOYIHA VA 100 IMKONIYAT

09.12.2025



ZEBO ijtimoiy-ma'rifiy o'quv dasturi doirasidagi treninglar o'tkazildi.

Bu loyihada talaba-qizlarning intellektual, ma'naviy, estetik, psixologik va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish maqsad qilingan.

14 kun davomida ishtirokchilar notiqlik san'ati, media savodxonlik, marketing asoslari bo'yicha amaliy bilimlarga ega bo'ldilar.

Bundan tashqari, grant va nomdor stipendiyalar yutish, liderlik, intizom va jamoada ishlash bo'yicha treninglar ham bo'lib o'tdi.

PSIXOLOG VA PEDAGOGLAR MEHNATI YUKSAK BAHOLANDI

10.12.2025



Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamda Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida "Ta'lim ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha eng yaxshi uslubiy qo'llanma" tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Tadbirda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari **Azizbek Turdiyev**, Ta'limni rivojlantirish markazi direktori o'rinbosari **Shahzodbek Kurbaniyazov** va akademik **G'ayrat Shoumarov** pedagog va psixologlar mehnatini yuksak baholab, ularga minnatdorchilik bildirdilar.

3-iyun–30-noyabr oralig'ida o'tkazilgan tanlovda **100 ga yaqin** uslubiy ishlar ko'rib chiqilib, ekspertlar tomonidan saralab olingani ma'lum qilindi.

Quvonarlisi, Nordik universiteti navbatdagi ilmiy yutuqqa erishdi. **1-darajali diplom va eng yaxshi uslubiy qo'llanma sohiblari** — Nordik universiteti Psixologiya va Maktabgacha ta'lim kafedrası vakillari **Nigoraxon Lutfullayeva** va **Damegul Arapboyeva** munosib taqdirlandilar.



TALENT SHOW

yorqin talantlar kastingi o'tkazildi

13.12.2025

Kastingda iqtidorli talabalarga vokal, raqs, aktyorlik, teleboshlovchilik hamda sport yo'nalishlarida o'z mahoratlarini namoyish etish imkoniyati berildi.

Har bir chiqishda yoshlar mehnati va ijodiy kuchi namoyon bo'lib turdi.

Eng munosib finalistlar Yangi yil bayrami arafasida e'lon qilinadi va munosib taqdirlanadi.

VATAN RAMZLARIGA EHTIROM — QALBIMIZDA VA ONGIMIZDA

13.12.2025

Nordik universiteti guruh sardorlari tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Davlat madhiyasiga bag'ishlangan bayram tadbiri tashkillandi. Ushbu tadbir yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati va davlat ramzlariga hurmat tushunchalarini mustahkamlashga xizmat qildi.


Tadbir davomida bilim, tezkor fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi.



Talabalar o'z bilimlari va fuqarolik pozitsiyasini faol tarzda namoyish etdilar.

ILM, MANTIQ VA MAHORAT SINOVI: NORDIKDA “HOKIM SOVRINI” FINAL BELLASHUVLARI!

14.12.2025



Nordik universitetida Toshkent shahar hokimiyati bilan o'tkazilayotgan umumta'lim maktablari, akademik litsey va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan fizika hamda matematika fani o'qituvchilari o'rtasida "Hokim sovrini" fan olimpiadasining final bosqichi qizg'in kechmoqda.

Mazkur ilmiy bellashuv **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi** shafeligida, **Toshkent shahar hokimligi**, **Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi**, **Xalqaro Nordik universiteti** hamda **IDC ta'lim markazi** hamkorligida tashkil etildi.

Olimpiadada poytaxt ta'lim tizimidagi eng faol, bilimdon va ilg'or pedagoglarni aniqlash, ularning ilmiy-intellektual salohiyatini keng jamoatchilikka namoyish etish maqsad qilingan.

1-bosqich onlayn tarzda o'tkazilib, Toshkent shahridagi barcha fizika va matematika o'qituvchilari qamrab olindi. Ular orasidan saralangan 50 nafardan eng kuchli nomzodlar final bosqichiga yo'llanma oldilar.

Final bosqichida ishtirokchilar aniq, mantiqiy va tahliliy masalalar orqali o'zlarining kasbiy mahorati, ilmiy yondashuvi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini namoyon etishadi.


Baholash jarayoni esa tajribali ekspertlardan iborat hakamlar hay'ati tomonidan ochiqlik va xolislik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

NORDIK EKOLOGIK MULOQOT MAYDONI: "QIRG'IZISTON — TOG'LAR VA QOR BARSLARI VATANI"

15.12.2025



Xalqaro Nordik universitetida Qirg'iziston Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda ushbu mavzuda muhim ilmiy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Xalqaro Tog'lar kuni va **Xalqaro Qor Qoplari kuni** munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda Markaziy Osiyoning ekologik barqarorligi bilan bog'liq dolzarb masalalar keng muhokama qilindi.

Anjumanda tog' ekotizimlarini muhofaza qilish, suv resurslari barqarorligi, muzliklar qisqarishi hamda mintaqa bio xilma-xilligining ramzi sanalgan qor barsini asrash masalalari chuqur tahlil qilindi.

Xalqaro Nordik universiteti mezbonlik qilgan ushbu uchrashuvda **Qirg'iziston elchixonasi vakillari, Xalqaro Suv Resurslarini Boshqarish Instituti (IWMI)** olimlari, professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar va keng jamoatchilik faol ishtirok etdi.

Tadbir avvalida Qirg'iziston tog'lari, Ala-Too manzaralari, Issiqko'l, noyob tog' florasini va faunasini aks ettiruvchi **"Tog'lar — umumiy merosimiz"** nomli fotoko'rgazma hamda videoroliklar namoyish etildi. Infografik materiallar va bukletlar orqali yoshlar hamda ishtirokchilarning ekologik xabardorligi oshirildi.

Ochilish marosimida **Qirg'iziston Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Duyshonkul Chotonov** Qirg'izistonning BMT doirasidagi xalqaro ekologik tashabbuslari — 2002-yilning Xalqaro tog'lar yili deb e'lon qilinishi, 11-dekabr — Xalqaro Tog'lar kuni, shuningdek, Bishkek global tog' sammiti tashabbuslari haqida atroflicha to'xtaldi. U muzliklar erishi, suv resurslari xavfsizligi, qor barsi populyatsiyasini muhofaza qilishda **Bishkek deklaratsiyasi** va mintaqaviy hamkorlikning ahamiyatini alohida ta'kidladi.

Tadbirda **Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor Sherzod Mustafakulov** tog'larni nafaqat geografik hudud, balki butun Markaziy Osiyo hayotini belgilovchi strategik ekologik resurs sifatida e'tirof etdi. Universitet ekologik barqarorlikni ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rishini, bu boradagi xalqaro muloqot va hamkorlik muhimligini ta'kidladi.

Shuningdek, **IWMI katta ilmiy xodimi, doktor Iskandar Abdullayev** tomonidan **"Tog'lar, suv va ekotizim"** mavzusida tahliliy ma'ruza taqdim etildi. Unda muzliklar qisqarishi, suv resurslariga tahdidlar, tog' hududlarining ekologik ahamiyati va Markaziy Osiyoda barqaror suv boshqaruvi masalalari ilmiy asosda yoritildi. Ma'ruza yakunida savol-javoblar va jonli munozara tashkil etildi.

Anjumanda Qirg'iziston Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Duyshonkul Chotonov tog'li ekotizimlarini muhofaza qilish va ularning barqaror rivojlanishiga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surishdagi faol ishtiroki va salmoqli hissasi, shuningdek, Xalqaro tog'lar kuniga bag'ishlangan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi tadbirlarni qo'llab-quvvatlagani uchun **rektor Sherzod Mustafakulovga Tashakkurnoma** taqdim etdi.

Mazkur tadbir Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi ekologik, ilmiy va madaniy-diplomatik hamkorlikni yanada mustahkamlash, yoshlar orasida ekologik ongni yuksaltirish hamda Markaziy Osiyoning umumiy tabiiy merosini asrash borasidagi mas'uliyatni chuqur anglashga xizmat qiluvchi muhim muloqot maydoniga aylandi.

TOSHKENT SHAHAR "HOKIM SOVRINI" OLIMPIADASI O'TKAZILDI

16.12.2025



TOP-3 g'oliblar

MATEMATIKA	
1	Norboyev Jahongir 85,2 ball
2	Oltiboyev Davrbek 72,5 ball
3	Turdiboyev Shukrullo 55,6 ball

FIZIKA	
2	Hasanov Otabek 73,6 ball
2	Avvalboyev Akbar 70,5 ball
3	Fayzullayev Asliddin 65,1 ball.

DUNYO MADANIYATLARI — TALABALAR NIGOHIDA

18.12.2025

"Madaniyatlararo qiyosiy tipologiya" fanidan rang-barang va sermazmun ochiq dars bo'lib o'tdi.

Unda magistratura bosqichi talabalari Gruzija, Hindiston, Rossiya, Turkmaniston, Misr, Qozog'iston, BAA va Fransiya madaniyatlarini qiyosiy tahlil qilib, urf-odatlar, milliy liboslar, taomlar hamda ijtimoiy hayot namunalari orqali o'xshash va farqli jihatlarni yoritdilar.

Taqdimotlar, videolar, ijodiy chiqishlar va savol-javoblar bilan jonli o'tgan dars talabalarda tahliliy fikrlash va xalqaro madaniy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qildi.

HISOBOT KONSERTI: ISTE'DOD VA ILHOM UYG'UNLIGI!

19.12.2025



Nordikdagi musiqa va san'at muhiti yosh iste'dod egalarining mahoratini yanada charxlamoqda.

Musiqa yo'nalishi talabalari namoyish etgan konsert dasturida jonli kuy-qo'shiqlar yangrab, semestr davomida egallangan bilimlarning yorqin ifodasi bo'ldi.

Talabalarning har bir chiqishida mehnat, san'atga muhabbat yaqqol sezilib turdi va ustozlar tomonidan yuqori baholandi.

Nordikda

- san'at nafasi

Xalqaro Nordik universiteti Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining hisobot konserti san'at bayramiga aylandi!

Jahon klassikasi, milliy, an'anaviy va zamonaviy estrada yo'nalishidagi vokal asarlar sahnada jonli ijro, kuchli ovoz va professional mahorat bilan yangradi.

Har bir ijro tomoshabinlar qalbiga yo'l topib, olqishlab turildi.

Yoshlar ijodiga bag'ishlangan jonli ijro kechasi yorqin lahzalarga boy o'tdi.

“YANGI O‘ZBEKISTON – MA’RIFATLI JAMIYAT” G‘OYASI AMALDA

19.12.2025



Xalqaro Nordik universitetida Turkiyaning Baygench nashriyoti va Inspiring Girl Akademiyasi hamkorligida nashr etilgan “Maktabgacha ta’lim – kelajak poydevori” nomli respublika antologiyasi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili va strategiyaning beshinchi yo‘nalishi doirasidagi ustuvor vazifalar — maktabgacha ta’lim istiqboli, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va xalqaro tajribalarni targ‘ib etishga e’tibor qaratildi.

Tadbir davomida Nordik universitetining bir guruh ustozlari mazkur antologiyani tayyorlashdagi faol ishtiroki va soha rivoji yo‘lidagi xizmatlari uchun “Maktabgacha ta’lim fidoyisi” esdalik nishoni, Tashakkurnoma va Faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar.





NORDIK TALABALARI UCHUN UNUTILMAS

NEW YEAR'S BALL!



Retro'da talaba-yoshlar uchun New Year Party o'tkazildi.

Bayram kechasi universitet rektori **Sherzod Mustafakulov** samimiy tabrik yo'llab, ezgu tilaklari bilan yoshlarga ilhom va qanot bag'ishladi.

Bayramona dasturxon, qiziqarli o'yinlar, ajoyib tanlovlar va sovrinlar, ballning qirol va qirolichalari — barchasi kechaga alohida shukuh baxsh etdi!

Maxsus mehmonlar — **MC Sancho, DJ Denzo va DJ Bella** o'zlarining energiyaga to'la chiqishlari va musiqiy setlari bilan kayfiyatni cho'qqiga ko'tarishdi!

Quvonch, raqs va yorqin xotiralarga boy chinakan Yangi yil bazmi bo'ldi!

SIFAT, NATIJA VA YANGI MARRALAR: NORDIK UNIVERSITETINING 2025-YIL YAKUNLARI TAHLIL ETILDI

22.12.2025



Nordik universiteti rektori, professor Sherzod Mustafakulovning professor-o'qituvchilar bilan uchrashuvi samimiy va tahliliy ruhda kechdi.

Uchrashuvda **2025-yil — “Ta’limda sifat bosqichi va ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish yili”** doirasida amalga oshirilgan akademik va noakademik faoliyat sarhisob qilindi.

Yil davomida universitet barcha tuzilmalarining barqaror taraqqiyot yo'lidagi izchil qadamlari, ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirish borasidagi tizimli yondashuvlari alohida e'tirof etildi. Xususan, xalqaro hamkorlik geografiyasi kengayib, yangi muzokaralar, tashriflar va memorandumlar

hamda ilmiy muloqotlar orqali yanada mustahkamlandi. Ilmiy tadqiqotlar, nashrlar, grantlar va loyihalar doirasi kengaydi, ta'lim eksporti yo'nalishida o'ziga xos Nordik tajribasi shakllandi. Shuningdek, raqamli rivojlanish va samarali boshqaruv mexanizmlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi, ustoz va talabalar yutuqlari, ilmiy muvaffaqiyatlar hamda yangi markazlar faoliyati tahlil qilindi. Bu jarayonlar ta'lim sifatini ijobiy natijalar bilan mustahkamlashga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda rektor tomonidan yangi 2026 — “Yashil universitet sari: global mehnat bozori talabi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash” yili doirasida jamoa oldida turgan ustuvor vazifalar, strategik yo'nalishlar va aniq maqsadlar belgilab berildi.

Bu yo'nalishlar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, ilmiy tadqiqotlarni xalqaro talablarga mos rivojlantirish hamda universitetning global raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan.

Xususan, ta'lim jarayoniga AI-integratsiyalashgan yondashuvlarni joriy etish, ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablari asosida yanada takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun academic mobility imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro va milliy akkreditatsiyalarga puxta tayyorgarlik ko'rish, fakultetlarni soha klasterlari asosida rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, ta'lim sifati bo'yicha KPI va reyting tizimlarini joriy etish, talabalar bandligi va startap tashabbuslarini tizimli qo'llab-quvvatlash, amaliyotga yo'naltirilgan fanlar ulushini oshirish, dars dizayni va baholash tizimlarini takomillashtirish muhim vazifalar sifatida qayd etildi. Bundan tashqari, qabul va marketing jarayonlarida maqsadli sa'y-harakatlar izchilligini ta'minlash, Nordik ilmiy mahsulotlarini xalqaro ilmiy bazalarda faol ilgari surish vazifalari belgilandi. Ushbu yondashuvlar orqali raqamli, ochiq va insonparvar universitet modelini izchil shakllantirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, professor-o'qituvchilar uchun xorijda malaka oshirish imkoniyatlari, yangi dasturlar va yaqinlashib kelayotgan treninglar haftaligi bo'yicha ham muhim ma'lumotlar yetkazildi.

Mazkur uchrashuvda Xalqaro Nordik universiteti jamoasi aniq strategiya, puxta reja va jamoaviy mas'uliyat asosida yanada ilg'or harakat qilishga undaldi.

Oliy ta'limda raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt

SEMENAR

23.12.2025

universitet 4.0 va 5.0 sari qadam



Nordik universitetida oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt (AI) imkoniyatlariga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.

Seminarda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori Alisher Abdullayev professor-o'qituvchilarga oliy ta'limni tubdan o'zgartirayotgan global tendensiyalar, amaliy yechimlar va strategik yondashuvlar bo'yicha yangi ilm va tajribalarini yetkazdi.

Iqtiboslar: "Sun'iy intellekt inson kabi o'rganadi, tahlil qiladi, qaror qabul qiladi va o'zini rivojlantiradi. Bugun u yordamchi bo'lsa, ertaga ta'limning strategik hamkori bo'ladi.

** Universitetlar endi zavod emas, innovatsiya markazlari.*

** Kelajak universitetlari bilim + shaxsiylashtirish, individuallashtirish + global integratsiya tamoyiliga asoslanadi.*

** Endi har bir talaba bilan individual ishlash imkoniyatga aylanadi.*

** Zamonaviy universitet laboratoriyalarida GPU serverlar bo'lishi shart. Chunki sun'iy intellekt infratuzilmasiz rivojlanmaydi.*

** Sun'iy intellekt maqola yozishda yordamchi bo'lishi mumkin, ammo u tadqiqotchining o'rnini bosa olmaydi.*

- *Universitetlar endi texnologiyani quvib yetuvchi emas, balki uni yaratuvchi va boshqaruvchi markazlarga aylanishi kerak."*

Seminarda zamonaviy universitetlar modeli keng tahlil qilinib, universitet 4.0 va 5.0 konsepsiyalari sari harakatlanish zarurligi ta'kidlandi.

AI texnologiyalari orqali:

- talabalar bilim darajasi tahlil qilinadi*
- o'quv trayektoriyasi shaxsiylashtiriladi*
- vaqt va resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi.*

Sun'iy intellekt — talaba, o'qituvchi va universitet uchun yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Spiker ta'lim jarayonlarida AI'ning amaliy qo'llanilishiga alohida to'xtaldi. Jumladan: insholarni tahlil qilish va baholash, test va topshiriqlarni avtomatik yaratish, GPA va akademik faollikni chuqur tahlil qilish, AI-proktoring orqali imtihonlarni nazorat qilish imkoniyatlarini yetkazdi.

Ilmiy tadqiqotlar va AI — imkoniyat va mas'uliyat demak. Seminarda ilmiy faoliyatda sun'iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari bilan birga xavflari ham atroflicha tahlil qilindi:

- noto'g'ri xulosalar*
- kontekstni noto'g'ri talqin qilish*
- iqtibos va mualliflik bilan bog'liq noto'g'ri ma'lumotlar*
- original tadqiqot sifatining pasayishi.*

Shuningdek, DOI tizimi, ilmiy etiketga rioya qilish, yirtqich (predatory) jurnallardan saqlanish masalalari dolzarb ilmiy muammo sifatida ko'rsatib o'tildi.

Bugungi kunda oliy ta'limning ma'muriy, o'quv va moliyaviy jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, 207 ta OTM, 1,7 mln. talaba, 45 ming nafar professor-o'qituvchi, 30 ta muhim axborot tizimiga, 40 ta elektron xizmatlar yagona platformaga integratsiyalangan.

HEMIS AI orqali talabalarga individual o'quv va kar'yera tavsiyalari beriladi, AI mock intervyular o'tkaziladi, rezume va vakansiyalar moslashtiriladi, bitiruvchilarning bandligi monitoring qilinadi.

Seminarda oliy ta'limda sun'iy intellekt bu kelajak emas, bugunning vositasi ekanini yana bir bor ta'kidlandi. Asosiy vazifa esa texnologiyadan oqilona, mas'uliyatli va ilmiy etikaga asoslangan holda foydalanishdir.

Seminar yakunida professor-o'qituvchilarning taklif-mulohazalari tinglandi, savollariga javoblar berildi.

SOVG'ALAR KARVONI

Nordik xalqaro maktabidan

Bugun 52-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda yuz nafarga yaqin bolajonlar uchun chinakam bayram va quvonchga to'la kun bo'ldi.

Nordik xalqaro maktabi ustozlari va o'quvchilarning ota-onalari tashabbusi bilan o'tkazilgan an'anaviy xayriya tadbirida mehr-e'tibor va samimiyat tuyg'ulari ustuvor bo'ldi.

Bolajonlarning Qorboboga yozgan beg'ubor maktublari beiz qolmadi — har bir tilaklari amalga oshirildi.

Yangi yil sovg'alari, iliq tilak va tabriklar, kuy-qo'shiqlar, quvnoq lahzalar va eng muhimi — samimiy mehr bolalar qalbiga nur, yuzlariga esa tabassum ulashdi.



**O'ZBEKISTON–SHVETSIYA TA'LIM MULOQOTI:
GLOBAL STIPENDIYA DASTURI DOIRASIDA YANGI
IMKONIYATLAR**



O'zbekiston Respublikasining Shvetsiya Qirolligidagi elchixonasi tashabbusi bilan Shvetsiya Instituti tashkiloti hamkorligida Global Professionals Scholarship (GPS) dasturiga bag'ishlangan onlayn muloqot tashkil etildi.

Ushbu uchrashuv O'zbekiston yoshlarini Yevropaning nufuzli ta'lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari bilan bog'lash yo'lidagi navbatdagi muhim tashabbus bo'ldi.

Muloqotda elchixona vakillari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, "El-yurt umidi" jamg'armasi, Xalqaro Nordik universiteti hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti vakillari ishtirok etdilar.

Elchixona sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston 34 ta davlat qamrab olingan GPS dasturi ro'yxatiga kiritildi. Bu dastur, ayniqsa, bakalavriat bosqichini tamomlayotgan iqtidorli yoshlar uchun Shvetsiyada tahsil olish va professional tajriba orttirish yo'lida yuksak imkoniyatlar eshigini ochadi.

Muloqot davomida XNU rahbariyati tomonidan universitet faoliyati va xalqaro yo'nalishlari bo'yicha taqdimot o'tkazildi. Shuningdek, hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida Xalqaro Nordik universitetida fin tilidan tashqari shved tilini o'rgatish kurslarini boshlash taklif etildi. Bu ta'limiy integratsiyani mustahkamlash va madaniy yaqinlashuvni kuchaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Muhokamalar yakunida Xalqaro Nordik universiteti O'zbekiston va Shimoliy Yevropa davlatlari o'rtasidagi akademik, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda "intensiv hub" sifatida muhim rol o'ynayotgani e'tirof etildi.

XALQARO NORDIK UNIVERSITETIDA BAYRAM TANTANASI!

25.12.2025



Har bir yil Nordik jamoasini yanada hamjihatroq va yanada kuchliroq qilmoqda!

Bugun Nordik oilasi Yangi yilni qalblari quvonchga to'lib, chehralarida samimiy tabassum, ko'ngillarida esa yangi rejalar va aniq maqsadlar bilan qarshi olmoqda!

Bayram tadbirida O'zbekiston milliy simfonik orkestri qoshidagi ansambl sozandalari mehmon bo'lib, o'z ijrolaridan bahramand etdilar.



NORDIKDA YANGI YIL — E'TIROF VA MINNATDORLIK, JAMOAVIY BIRDAMLIK BAYRAMI!

26.12.2025



Bayram — ustozlarga ta'zim, ezgu tabriklar, ilmga sadoqat va jamoaviy birdamlik ramzi!

Yil davomida alohida faollik ko'rsatgan ustozlarimizga Tashakkurnomalar topshirildi. Nordikning har bir yutug'i ortida fidoyi ustozlar turibdi!



KENGASH YIG'ILISHI

Yillik sarhisob va kelgusi rejalar

Kengash yig'ilishida universitet ilmiy salohiyati, ta'lim jarayoni sifati va kelgusida rivojlanish istiqbollari belgilovchi muhim masalalar muhokama qilindi.

Dastlab **“Universitetda 2025-yil davomida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari sarhisobi hamda 2026-yil rejasini tasdiqlash”** masalasi yuzasidan mas'ullarning hisobotlari tinglandi. Ilmiy faoliyat samaradorligi, nashrlar va tadqiqotlar sifati, muhim ilmiy yo'nalishlar natijalari tahlil qilindi. 2026-yil uchun maqsadlar va natijadorlik ko'rsatkichlari belgilab olindi.

Kengashda ta'lim jarayonini tartibga soluvchi qator muhim hujjatlar — tartib-qoidalar, "Yo'l xarita" va yo'riqnomalar qayta ko'rib chiqilib, tasdiqlandi.

Jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha qabul qilingan yo'riqnomada ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalardan mas'uliyatli, shaffof va samarali foydalanish tartib-qoidalari belgilandi.

Yig'ilishda turli masalalar doirasida professor ilmiy unvonini olish uchun hujjatlar taqdim etish, talabalar va xodimlar o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovnoma natijalari: muammolar banki, takliflar va xulosalar, professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlarini nashrga tavsiya etish kabi qator masalalar ko'rib chiqildi.

Kengash yig'ilishida universitetda ilmiy boshqaruv, akademik sifat va innovatsion yondashuvlar uyg'unligini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim qarorlar qabul qilindi. 2026-yilda ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga yo'naltirilgan vazifalar belgilandi.

Yig'ilishda yil davomida ilmiy yutuqlar, e'tiroflarga sazovor bo'lgan ustozlarga samimiy ehtirom ko'rsatilib, muvaffaqiyatlari bilan qutlandi.



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Xalqaro Nordik universiteti missiyasi –
zamonaviy bilimlarni berish orqali
talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash,
ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib
yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni
rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini
yechishga ko'maklashish, xalqaro
hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va
globallashuv sharoitida ta'lim eksportini
oshirishdan iborat!



BIZNI KUZATING



@nordic_edu



www.nordicuniversity.org